

AMINOKISLOTALAR

Baxromova E'zoza


Qo'shtepa tuman 2-son kasb-hunar maktabi kimyo fani o'qituvchisi

AMINOKISLOTALAR

Tarkibida ham karboksil (-COOH) va ham amino (-NH₂) guruh tutgan organik birikmalar aminokarbon kislotalar, yoki aminokislotalar deyiladi. Tabiatda uchraydigan aminokislotalarning umumiy soni 300 ga yaqin bo„lib, ulardan ba“zilari ma“lum organizmlardagina mavjud bo„ladi. Barcha oqsillar tarkibida doimo bo„ladigan 20 ta -aminokislotalar *proteinogen*, ya“ni oqsil hosil qiluvchi aminokislotalar hisoblanadi. Tabiiy aminokislotalar odatda 2-aminokarbon ya“ni -aminokislotalar hisoblanadi. Biroq, ular orasida -alanin, taurin, -aminomoykislotalar singarilar ham uchraydi.

Tasnifi. Aminokislotalar tarkibi, xususiyatlari, biokimyoviy ahamiyati kabi belgilariga ko„ra bir necha turli klassifikatsiyaga bo„linadi.

Aminokislotalarda aminoguruhnning karboksil guruhga nisbatan qaysi uglerod atomiga joylashganligiga ko„ra -, -, -, - va - singari sinflarga bo„linadi.



-aminokapron kislota, 6-aminogeksan kislota


Tirik organizmlarda asosan, -aminokislotalar uchraydi. Ularning o„zi radikal qismining kimyoviy tabiatiga ko„ra bir necha sinflarga bo„linadi.

Radikalning tabiatiga ko„ra -aminokislotalar alifatik, aromatik va geterosiklikga bo„linadi.


Alifatik aminokislotalar ko„p miqdordagi vakillarga ega bo„lib, ular o„z navbatida bir necha sinflarga bo„linadi. Masalan, karboksil va aminoguruhlarning soniga ko„ra **neytral** (bittadan amino va karboksil guruhga ega), **asosli** (aminoguruhlar karboksildan ko„proq), **kislotali** (karboksil guruhlari aminoguruhdanko„proq) sinflar ajratiladi.

I. Alifatik aminokislotalar


1. Neytral aminokislotalar




Glitsin (Gly)




Alanin (Ala)




Valin (Val)




Leysin (Leu)




Izoleysin (Ile)




Serin (Ser)



Treonin (Thr)





Sistein (Cys)




Metionin (Met)

4. Qutbli o„rinbosar saqlagan aminokislotalar




Asparagin (Asn)

5. Kislotali aminokislotalar




Asparagin kislota (Asp)

Glutamin (Gln)




Glutamin kislota (Glu)

6. Asosli aminokislotalar




Lizin (Lys)




Arginin (Arg)

II. Aromatik aminokislotalar




Fenilalanin (Phen)




Tirozin (Tyr)


III. Geterohalqali aminokislotalar



Triptofan (Trp)



Gistidin (His)



Prolin (Pro)

Yuqoridagi formulalardan ko„rinadiki, neytral aminokislotalarda zanjirdagi uglerod atomlari soni 6 dan ortmaydi. Ularning 4 ta uglerod saqlagan vakillari uchramaydi. 5 va 6 uglerod atomlariga ega bo„lgan vakillari doimo tarmoqlangan (valin, leysin, izoleysin) bo„ladi.

Alifatik radikalda boshqa funksional guruhlar ham bo„lishi mumkin, masalan, gidroksil (serin, treonin), karboksil (asparagin va glutamin kislotalar), tiol (sistein), amid (asparagin, glutamin).

Aromatik va geterosiklik aminokislotalarda benzol va geterohalqa kislota fragmentidan metilen guruhi $-\text{CH}_2-$ bilan ajratilgan bo„ladi. Ularni β -alaninning hosilalari sifatida qarash mumkin.

Aminokislotalar suvda eruvchanligiga ko„ra farqlanadi. Bu ularning radikal qismlarining suv bilan ta“sirlashishiga (gidratlanishiga) bog„liq. Gidrofil radikallarga kation, anion va qutbli zaryadlanmagan funksional guruhlarni kiritish mumkin. Gidrofoblar – alkil va aril radikallar hisoblanadi.

Radikal guruhning qutbliligiga ko'ra aminokislotalar 4 sinfga bo'linadi: qutbsiz, qutbli zaryadlanmagan, manfiy zaryadlangan va musbat zaryadlangan.

Qutbsiz aminokislotalarga: glisin; yon zanjirida alkil va aril saqlagan – alanin, valin, leysin, izoleysin; tirozin, triptofan, fenilalanin; iminokislota – prolinlar kiradi. Ular oqsil molekulasingin gidrofob qurshoviga – "ichkari" qismiga tushishga harakat qilishadi.

Qutbli zaryadlangan aminokislotalarga: musbat zaryadli – gistidin, lizin, arginin; manfiy zaryadli – asparagin va glutamin kislotalar kiradi. Ular oqsil molekulasingin "tashqi" – suv bilan qurshalgan qismiga tushadi.

Qolgan aminokislotalar qutbli zaryadsiz kategoriya kiradi: serin va treonin (aminokislota-spiral); asparagin va glutamin (amid); sistein va metionin (oltingugurt saqlagan).

Oqsillarda radikalning ionogen guruhlari, odatda, makromolekulaning yuza qismida joylashadi va elektrostatik ta'sirlarni yuzaga keltiradi. Qutbli noinogen radikallar yuzada ham molekulaning ichki qismida ham joylashishi mumkin va ular vodorod bog'ini hosil qilishda qatnashadi.

Yana bir klassifikasiya ularning biokimiyoviy ahamiyatiga ko'ra tasniflashdir. Biokimiyoviy tasnifiga ko'ra aminokislotalar 4 sinfga bo'linadi (Nikolayev, Biokimyo, 341-bet): 1) almashmaydigan; 2) qisman almashadigan; 3) shartli almashadigan va 4) almashadigan aminokislotalar.

Valin, leysin, izoleysin, metionin, treonin, fenilalanin, lizin va triptofan aminokislotalari inson organizmida sintez qilinmaydi va shu sababli – almashinmaydigan aminokislotalar deyiladi.

Arginin va gistidin aminokislotalari organizmda qisman sintezlanadi. Biroq, organizm uchun, ayniqsa yosh, o'suvchi organizm uchun ularning miqdori yetarli bo'lmasligidan, ushbu aminokislotalar – qisman almashinadigan deyiladi.



Sistein va tirozin aminokislotalari organizmda mos ravishda metionin hamda fenilalanin aminokislotalaridan sintezlanadi. Agar ozuqa bilan organizm uchun kerakli me'yordan ortiqcha metionin va fenilalanin tushmasa, unda sistein va tirozin ham almashmaydigan bo'lib qoladi. Shu sababli bu ikki aminokislota shartli almashadigan deyiladi.

Glisin, alanin, serin, asparagin, asparagin kislota, glutamin, glutamin kislota, prolin aminokislotalari organizmda sintezlanadi va shu sababli almashinadigan aminokislotalar deyiladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ba'zi kasalliklar, ayniqsa irsiy kasallikkarda almashinmaydigan aminokislotalar ro'yxati o'zgarishi mumkin.

Bir qator oqsillar tarkibida odatdagagi aminokislotalarning peptid zanjiriga kirganidan so'ng modifikasiyalanish orqali hosil bo'lgan, o'ziga xos aminokislotalar uchraydi, masalan, 4-gidroksiprolin, fosfoserin, γ -karboksiglutamin kislota va boshqalar.

Nomlanishi. α -Aminokislotalarni nomlash o„rinbosar nomenklaturasi asosida bo„ladi, biroq amalda ko„proq trivial nomenklatura qo„llaniladi.





t.n.: α -Alanin, Ala

s.n.: 2-Aminopropanskislota

t.n.: β -Alanin

s.n.: 3-Aminopropan kislota



t.n.: γ -Aminomoy kislota (GAMK) t.n.: ε -Aminokapron kislota s.n.: 4-Aminobutan kislota s.n.: 6-Aminogeksan kislota

Aminokislotalarning trivial nomlari asosan ularning olingan manbasi bilan bog„liq. Masalan, serin – ipakning fibroini tarkibiga kiradi (lotincha serieus - ipaksimon); tirozin – birinchi marta pishloqdan olingan (yunoncha tyros - pishloq); glutamin – don oqsidan (lotincha gluten - kley); sistin – qovuq toshlaridan (yunoncha kystys - qovuq); asparagin kislota – sarsabil (asparagin) o„simligi nihollaridan (lotincha asparagus - sarsabil) olingan.

Fizikaviy xossalari. α -Aminokislolar – suvda yaxshi eruvchan kristall moddalar bo„lib, ko„pchiligi shirin ta“mga ega. Aynan ushbu xususiyat aminokislotalarning birinchi gomologi – glitsinga nom bo„lgan. 1820 yilda A. Brakonno turli to„qimalarni (teri, tog„ay, pay) suvda qaynatib, “donsimon kristallar” ajratib oldi va shirin ta“mga egaligi sababli glikokol deb nomladi, ushbu modda keyinchalik glitsin deb atala boshladi.

Aminokislolar ko„rinuvchan sohada nur yutmaydi, aromatik aminokislolar UB sohada: triptofan va tirozin 280 nm, fenilalanin 260 nm da yutilish polosalariiga ega.

Aminokislotalarning biologik roli. Yuqorida aytib o„tilganidek, 20 ta α -aminokislolar oqsillar tarkibiga kiradi. Ma“lumki, oqsillar tiriklik uchun muhim biokomponent hisoblanadi. Ularsiz hayotni tasavvur qilish mumkin emas. α -Aminokislotalarning ko„pchiligi organizmda sintez qilinadi. Organizmda sintezlanmaydigan aminokislolar tayyor holatda oziq-ovqat mahsulotlaridan olinishi lozim bo„ladi. Quyida aminokislotalarning ba“zi biologik vazifalari keltirilgan:

- 1) peptid va oqsillarning struktur elementlari – 20 ta aminokislota proteinogen deb ataladi va genetik kodlanadi;
- 2) kofermentlar, o„t kislotalari, antibiotiklar singari tabiiy birikmalarning struktur elementlari hisoblanadi;
- 3) signal molekulalar – ba“zi aminokislolar neyromediatorlar, gormonlar va gistogormonlar yoki ularning o„tmishdoshlari hisoblanadi;
- 4) ba“zi aminokislolar o„simliklar alkaloidlarining o„tmishdoshlari, azotning donori yoki ozuqaning muhim komponenti bo„lib, hayotiy jarayonlarning asosiy metabolitlari hisoblanadi.

Ko„pchilik aminokislolar tibbiyat amaliyotida dorivor vositalar sifatida qo„llaniladi. Masalan, glutamin kislota markaziy nerv sistemasi kasalliklarida, metionin va gистидин – jigar kasalliklarida, sistein – ko’z kasalliklarini davolashda Qo’llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- 1.Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida:- xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari, Toshkent-1997
- 2.Abdusamatov A., Mirzayev F., Ziyoev F.Organik kimyo. Toshkent O’qituvchi - 2004.
- 3.Aloviddinov A.B., Ismatullayeva M.T., Xolmurodov N.A.Organik kimyo Toshkent O’qituvchi -2005,
- 4.L.Ibragimov I.T.Mishienko D.K/Cheloyansi. Intensifikasiyadobchi nefti”Nauka”2000 g
- 5.Gimatudinov Sh.K.Nefteotdacha kollektorov 1970 g
- 6.Karimov A.U.,Yusupov D.,Tursunov M.A.,Hamroyev B.N.Mahalliy xom-ashyolar asosida neft-gaz qazib olish uchun yangi reagentlar Standart 2006 № 3 36-38-betlar.
- 7.S.M.Turobjonov,D.Yusupov,M.A.Tursunov,A.Ikromov,A.S.Mustafayev,K.Sh.Hamro yevYangi korroziya ingibitorlarni yaratish,xossalalarini tadqiq qilish,tajriba-sanoat ishlab chiqarilishini o’zlashtirish.O’zbekiston kimyo jurnali 4/2009y